

**OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TALABALARNING YADRO
REAKTORLARI BO'YICHA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

Batirova Roziyaxon Baxtiyorovna¹,

Farg'ona texnika Davlat Universiteti assistenti.

Roziyabatirova776@gmail.com

+99891-115-41-49

Jahonda oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlarini o'qitish jarayonini to'raligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq ta'lim faoliyatini rejalashtirish va kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim oluvchilar tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirish, oliy ta'lim tizimini standartlashtirish, "bakalavr – magistr – modul – kredit" tizimini rivojlantirish, "mikro-kurslar", "mini-kurslar" modulli o'qitish kurslarini takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. "YUNESKO"ning Tokiodagi Butunjahon konferensiyasida modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqib, talabalarning yadro reaktorlari bo'yicha texnologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajribalarga ko'ra barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy unsurlardan biri – ta'lim va tarbiya ekanligi alohida ta'kidlanadi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etishda amaliy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlarga oliy ta'lim mazmunini yangilashga urinishlar, (dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar), yangi o'quv va ilmiy manbalarni (chet el darsliklari va metodlari) joriy etish, bitiruvchilarni xalqaro mobilligini ta'minlash (Bolonya va boshqalar) kabi jarayon va qoidalarni keltirish mumkin. Shundan kelib chiqib ilmiy va o'quv bilish metodlari vositasida talabalarning yadro reaktorlari bo'yicha texnologik kompetentligini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, talabalarda texnologik kompetentlikni

rivojlantirishni metodik modellashtirish, baholash mexanizmlarini, uslubiy-didaktik ta'minotni va o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini taqozo qiladi.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va bulajak mutaxassislarni zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini yuksak darajada shakllantirish uchun o'qitishni kompetentli yondashuv asosida yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. PQ 2909 ga asosan Oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar etib quyidagilar belgilansin:

har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;

yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs

markazlari fondlarini muntazam yangilab borish; Oliy ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotlar markazida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shakllarini, innovatsion klasterli yondashuvda ta'limning barcha bosqichlarida ko'p variantli ta'lim texnologiyalarini yaratish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish" bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu strategiyadagi chora tadbirlarni amalga oshirishda, aynan, texnika OTMlarida, zamonaviy xorijiy universitetlar tajribasi asosida ta'limning sifatini oshirish, o'quv-texnik va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv dasturlar va raqamli ta'lim resurslarini jahon standartlari asosida yangilash, o'quv jarayonini raqamlashtirish zarurati mavjud.

Oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlaridan ta'lim jarayonini tashkil etishning tashkiliy va pedagogik jihatlarini yoritib berishgan. Texnika fanlarini o'qitishni takomillashtirish muammolari respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, mamlakatimiz olimlaridan G'.R.Raximov, H.F.Fozilov, M.Z.Xamutxonov, A.S.Karimov S.M.Majidov, M.M.Mirhaydarov, Q.R.Allayev, M.Ibadullayev, B.Abdullayev, S.F.Amirov va boshqalar oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlarini o'qitish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2022 yil 9 iyundagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-

150-sonli, 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-sonli farmonlari, 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Polvonov Satimboy Rajapovich, Bozorov Erkin Xojiyevich, Kanokov Zakirjon, Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi t oshkent «g o to pr in t » 2020
- 2.<https://mt.bimm.uz>. Kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish. Oliy ta’lim professor o‘qituvchilari uchun masofaviy kurslar.
- 3.<https://lex.uz/docs/3171590?ONDATE=04.07.2023>